



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 3 - noyabr

VII-56-136-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

Nurota tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning 2023-yil 9 oyi yakuni bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-sonli qaroriga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimi joriy etilgan.

Mazkur qarorga muvofiq Nurota tumanida tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish, aholi bilan muloqot tizimini yo'lga qo'yish, aholi turmush darajasi va bandligini oshirish, hududlarni jadal va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tumanda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish, aholi bilan muloqot tizimini yo'lga qo'yish, aholi turmush darajasi va bandligini oshirish, shuningdek hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning 2022-yil yakuni bo'yicha baholangan reyting ko'rsatkichlarini muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-sonli qarori hamda Nurota tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning 2023-yil 9 oyi yakuni bo'yicha reyting ko'rsatkichlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari(A.Bo'riyev, R.Azimov, Sh.Vafoyev, F.Yodgorov, G.Bobomurodova, O.Oxunjonov) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari hamda topshiriqlarining belgilangan muddatlarda sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, o'zlari mas'ul bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko'rsatkichlari natijalari uchun shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yilsin.

3. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari:

har oyning 25-sanasiga qadar faoliyat ko'rsatkichlarini baholashning asosiy mezonlarida belgilangan vazifalarning, kelgusi oy shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishini;

faoliyat ko'rsatkichlari ijrosi bo'yicha har oy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, teleradio kanallar hamda hokimlik veb sayti orqali axborot berib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi:

2023-yil yakuni bo'yicha hokim o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishining yakuniy natijalarini ko'rib chiqish va baholash yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilishini;

2023-yil yakuniga qadar har bir hokim o'rinbosari bo'yicha berilgan baho natijalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar, shu jumladan, tegishli o'rinbosarlar mas'uliyati yuzasidan takliflar hamda boshqa tahliliy materiallar, shuningdek, xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorini xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashiga kiritilishini ta'minlasin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari har chorak yakunida:

hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha vazifalar bajarilishi holatini bevosita joyiga chiqib o'rgangan holda ijro bilan bog'liq masalalarni doimiy komissiyalar yig'ilishlarida muntazam ravishda muhokama qilsin;

deputatlik nazorati doirasida vazifalar ijrosi yuzasidan mas'ul etib belgilangan o'rinbosarlarning va bo'lim boshliqlari ma'lumotlari va tahlillari asosida mas'ullarning axborotlarini eshitish bilan bog'liq masalalarni xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiya yig'ilishlari va sessiyalari muhokamasiga kiritib borsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov)ga mazkur qarorni belgilangan tartibda tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirish hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish vazifasi yuklatilsin.

7. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari Nurota tumani Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmlariga yuklansin.

Kengash raisi



A.Fayziyev